

«Temur tuzuklari»ni har gal o'qir ekanman, xuddiki o'zimga qandaydir ruhiy kuch-quvvat topgandek bo'laman.

Islom KARIMOV

AMIR TEMUR BOG'LARI

Ko'chat ekish haqida el orasida shunday rivoyat yuradi: «Podshoh bir qishloqdan o'tib ketayotsa, bir mo'ysafid ko'chat ekayotgan ekan. Cholning g'ayratiga shohning havasi kelibdi. Otini to'xtatib, otaxonni gapga solibdi: «Hormang, ota, nima ko'chat ekayapsiz?» desa, otaxon: «Bor bo'ling, olampanoh, yong'oq ekyapman», deya javob beribdi. «Yong'oq ko'chati 10-15 yilda hosilga kirsa, ungacha kim bor-u kim yo'q, mevasidan yeyish o'zingizga ham nasib qilarmin?» debdi shoh. «Olampanoh, bobolarimiz ekdi, biz yedik, biz ekamiz, hosilini bolalarimiz, nevaralarimiz yeydi», debdi mo'ysafid. Cholning hozirjavobligi, g'ayrati shohga ma'qul kelibdi va bir hamyon tilla hadya qilibdi.

Sohibqiron bobomiz ham bog' barpo etishga alohida e'tibor qaratgan. Mohir me'mor, tajribali bonyodkor aql-zakovatl, bog'bonlar mehnatinig rag'batlantirganda, kelajak avlodga bog'larimiz zavq bag'ishlab, mevalarning dong'i yetti iqlimga yetishi, qurgan imoratlarimiz go'zalligi bilan dunyo ahlini lol qoldirsins, deya niyat qilgan bo'lsa, ajabmas...

Sohibqiron boschchiligidan barpo etilgan Bog'i Dilkusho, Bog'i Chinor, Bog'i Baland, Bog'i Shamol kabi chorborg'lar, ularagi go'zal ko'shklar o'z davrining saylgoh, bog'dorchilik san'atining sara namunalarini hisoblangan. Uning bog' qurish an'anasin temuriyodalardan Shohrx, Ulug'bek, Boysunqur, Husayn Boyqaro, Bobur va boshqalar davom ettirdilar.

Amir Temur sa'y-harakatlari bilan obod etilgan shahrlar, qishloqlar, Shahrizabz, Samarqand, Buxoro, Yassi (Turkiston) singari ko'rkam va muhtasham inshootlarning ba'zilari hozirgi kunda ham shaharlarimiz ko'rkiga ko'rkh bo'lib turibdi.

Bugungi kunda ulug' ajdodlarimizning bonyodkorlik



an'analari keng ko'lama davom ettirilmoqda. Jannatmakon yurtimiz chog'ida behisob bog'lar barpo etilayapti. Bu borada maktab o'quvchilarining «Har bir o'quvchiga bir ko'chat!» hamda «Bitiruvchi o'quvchilar bog'i ni bunyod qilishida ham bu ezu iishni davom ettirishdek ramziy hikmat bor.

Yurtimizda bog'-rog'lar, gulzorlarni ko'paytiraylik. Ona zaminimizni yanada yashnatib, ota-bobolarimizga xos bo'igan bonyodkorlik, yaratuvchanlik fazilatlarini namoyon etaveraylik. Shu ozod va obod Vatan mehri hech qachon dillarimizni tark etmasin.

Nodira NAZAROVA

Vatan bu tug'ilib o'sgan tabarruk ona zamin, kindik qonimiz to'kilgan yurt. Vatan qadrini men ilk bor qishlog'imdan yiroqda yurgan chog'imda his qilganman. Qushlarning timimsiz sayrashi, gullarning xushbo'y ifori, daryolarning shivirlab oqishidan qanchalik qadrlar ekanligini anglaganman. Dono xalqimiz bejiz Vatan so'ziga Ona so'zini hamohang ishlatmagan.

VATAN MENING ENG YUKSAK TAXTIM!



Kishi yurtidan yiroqlashgan sari Vatan qadrini chuqurroq his qiladi. Bunga shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning holatini misol qilib olasak bo'ladi. U butun umri davomida Hindistonda yashagan bo'lsa-da, Vatan qadri, Vatan sog'inchi bir lahma ham qalbini tark etmagan.

Erta tongdan charaqlab chiqqan quyosh, kurrai zaminni nurlari bilan erkalab uyg'otadi. Qushlar esa qanotlarini keng yozib, shodon qo'shiq kuylashga tushadi. Mustaqil diyorimiz osmonida, bu mening makonimdir, degandek tinch uchib yuradi. Men ham tongda yurtimiz madhiyasini tinglar ekanman, o'zimni osmonlarda uchib yurgandek his etaman. Kun bo'y Vatanim ta'rif etilgan bu satrlar meni yanada ko'proq o'qishga va ijod qilishga undaydi.

Tinchlik va erkinlik bir-biriga bog'liq ulug' ne'matdir. Tinchlik bo'lsa, borliq erkin nafas oladi. Xalqimiz tinchlikni yuksak qadrlaydi, uni o'z orzu-intilishlari ro'yogha chiqishining kafolati deb biladi.

Har gal yurtimning beqiyos bog'-u rog'lari, purviqor tog'lari, chamanzorlari, yam-yashil qir-adirlari, samimiy odamlariga boqqanimda, yuragimda ilhom jo'sh uradi va tuyg'ularim she'rغا aylanadi.

*Osmonlari musaffo yurtim,
Sen tinchdarsan, shu mening baxtim.
Shukronalar aytaman har vaqt,
Vatan mening eng yuksak taxtim.*

Sirojiddin KARIMOV,
O'zDJTU tarjimonlik fakulteti talabasi

FARZANDIMGA

KITOB SOVG'A QILAMAN

...G'iyosiddin kichkina Alisherning «Mantiq ut-tayr»ni o'qiyotganligidan xabar topadi va o'g'lining bunday falsafiy asar mutolaasiga hali yoshlik qilishidan xavotirlanib, kitobni berkitib qo'yadi. Farzandidan kitobni allaqachon yod olganini bilgan ota uning zukkoligidan suyunib, shu kundan boshlab unga kitoblar sovg'a qila boshladi.



Maktab o'quvchilari Fatxulla Choriyev, Doniyor Jalilovlar ijrosidagi Alisherning otasi bilan kitob mutolaasi xususidagi munozarasi sahna ko'rinishi shunday kechdi...

Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 28-umumta'lum maktabida Navoiy singari

kitobga mehr qo'yan o'quvchilar ko'plab topiladi. Oi lavi y kitobxonikni targ'ib etish maqsadida 5-, 8-sinf o'quvchilar ishtirokida tashkil etilgan tadbir «Farzandimga kitob sovg'a qilaman», deb nomlandi. Kechada Javohir Esonjonov, Robiya Nabijonova kitobning inson hayotidagi o'rni haqida so'zlashdi. Abdulaziz Vahobjonov, Mohira Abduqayumova, Malohat Yodgorova-larning mavzuga oid she'rlari adabiyotga xos hikmatli so'zlarga ulandi. Zuhra Ahmadjonovaning xorazmcha raqsi esa barcha tadbir qatnashchilariga zavq ulashdi.

Tadbir sabab, kitobxon o'quvchilar safi yanada kengaygan bo'lsa, ajabmas.

O'z muxbirlarimiz





SEVIMLI YOZUVCHIMGA



Hurmatli gazetasi xodimlari!
Men gazetaning har bir sonini katta qiziqish bilan o'qiyman. Bu yil ham nashrga yillik obuna bo'ldim.

Fursatdan foydalanib, gazeta orqali sevimli bolalar yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyevga o'zimning samimiy tilaklarimni yo'llamoqchiman.

Assalomu alaykum, Xudoyberdi bobo! Men sizning bir-biridan qiziqarli kitoblarlingizni sevib mutolaa qilaman. «Sariq devni minib» asaringiz asosida ishlangan filmini miriqib tomosha qildim. 2013-yilda nashrdan chiqqan «Peshonasiga televizor

yopishgan bola» nomli asaringiz kitob javonimdag'i eng qadrali kitoblardan bira. Men sizga havas qilib qo'llimga qalam olganman. Asarlaringizdan ilhomlanib, o'zim ham she'r, maqola, kichik-kichik hikoyalar yozib turaman. Kelajakda esa sizdek bolalar yozuvchisi bo'lamoqchiman. Sizga uzoq umr, sog'lik-salomatlilik tilayman. Bizga atalgan kitoblarlingiz soni kundan kunga ko'payaversin.

Ma'mura MAMADINOVA,
Sirdaryo viloyati, Oqoltin tumanidagi
Farg'ona QXX kolleji 2-bosqich o'quvchisi



Xalqimizda
bir tilni bilgan bir
inson, ikki tilni
bilgan ikki inson,
deyishadi.

Til - dil kaliti

Bir kuni rus millatiga mansub bir qizaloq ko'chada yig'lab o'tirganida, Marjona yoniga kelib, nega yig'layapsan, deb so'radi. Qizcha Marjonaning gapiga tushunmay yig'layverdi. Men ham qizchani ko'rib, yoniga bordim-da, nega yig'layotganini rus tilida so'radim. U menga bir do'stidan xafa bo'lib yig'layotganini aytdi. Uning ko'nglini ko'tarishga harakat qildim. Biz ancha gaplashib qoldik. U menga rahmat aytdi.

Uya qaytayotganimizda, Marjona: – Endi men ham til o'rganaman, – dedi. Oradan 3-4 oy o'tgach, Marjona ham rus tilida gaplashishni ancha o'rganib qoldi. Qissadan hissa shuki, til bilgan – dil biladi.

Nasibaxon BOYQOBILOVA,
Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi
5-umumta'lum maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi

LOLANI CHALG'ITGAN TELEFON

O'shanda Lola 6-sinfda o'qirdi. U sinfning a'lanchisi, unga hamma havas qilardi. Negadir so'nggi paytlarda uning fe'l-atvori o'zgara boshladi. Dugonalarni mensimay qo'ydi.

Ustiga ustak telefonda tungi uyqu onlarini turli SMS yozishmalari bilan o'tkazib, onasining tanbehini ham qulog'iga ilmaydigan bo'lib qoldi.

Dugonalari Lolaga bu ishi noto'g'ri ekanligini tushuntirishdi. Lola esa: «Men bilan nima ishingiz bor? Sizlarsiz ham dugonalarni yetarli», deya dillarini o'rtidi. Uning o'qishlari pasayib ketdi. Bahonalar to'qib, ko'p dars qoldiradigan bo'ldi. Shu tariqa 6-sinfni ham tamomladi. 7-sinfga o'tish uchun tarix va adabiyot fanidan imtihon topshirish kerak. Tarix fanidan imtihonda test yechishdi. Sinfoshlari savollarga javobni yozib, topshirib ketishdi. Lola bir o'zi qoldi. Nima qilishini bilmadi. Uning yuzlari duv qizardi va yig'lab yubordi. «Nega shuncha payt o'qimadim, essiz, shuncha vaqtim...», deb rosa afsuslandi.

Bir haf-tadan so'ng adabiyot fanidan imtihon. Lola shu bir hafta ichida telefonni qo'liga olmay, imtihonga qattiq tayyorlandi. Nihoyat, imtihon kuni keldi. Ustozi birma-bir o'quvchilarindan so'ray boshladi. Navbat Lolaga keldi. U she'rni shunday chirolyi o'qidiki, ustozlari ham qarsak chalib yuborishdi. Hozirda Lola 7-sinfning eng a'lachi o'quvchisi. Telefonda SMS yozishdan ko'ra, bir qator bo'lsa ham kitob o'qishni afzal ko'radi.

E'zoza MUHAMMEDOVA,
poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi
193-umumta'lum maktabining
7-«D» sinf o'quvchisi

Bizning ahil o'ila

Men tuman
nimizdagi musi
qa va san'at mak
tabining dutor
yo'naliishiда та
sil olaman.

Shirinso'z va samimi musiqa ustozlarimidan dudorta turli kuylar chalish sirlarini qunt bilan o'rganib, ko'plab tadbirlarda faol ishtirok etyapman. O'rgangan kuylarimni uysa kelib, birinchi navbatda buvum va bobomga chalib beraman. Ular maroq bilan tinglashadi. BUNDAN zavqlangan singillarim raqsiga tushib, qo'shiqlar aytishadi. Biz juda ahil oimaliz. Buvijonim va bobom bizni olqishlab, duo qiladilar. «Bunday zamonlarda yashashni biz faqat orzu qilganmiz, bolalarim. Ko'p o'qib o'rganining, vaqtini qadriga yeting, mehnatkash, ahil bo'lib o'sing. El koriga yaraydigan ilmli, hunarli insonlar bo'lib voyaga yeting», deb utqiradilar.

Mumtozbegim OBIDOVA,
Namangan viloyati, Pop tumanidagi
40-umumta'lum maktabining
3-sinf o'quvchisi

Ugom, Pskom, Ko'ksu va Chotqol tog'ları
qurshab turadi.



OQBULOQ – QOCHQOQ BULOQ

Purviqor muzqoyalardan boshlanuvchi jilg'a va soylar birlashib, butun Toshkent vohasiga obihayot ulashadi. Ona tabiatning bunday betimsol inoyatlar tufayli hudud iqlimi yilning to'rt faslida ham o'ziga xos va betakrordir.

Bu yerda har qadamda turli tilsimotlarga guvoh bo'lish mumkin. Ko'hna zamin bag'ridan sizib chiquvchi zilol buloqlarni ham, hech ikkilanmay, ana shu mo'jizalarga mengzash mumkin. Borliqqa tiriklik, musaffolik baxsh etib turuvchi shifobaxsh chashmalar mahalliy aholini ham, bu yerga keluvchi mehmon va sayyoohlarni ham befarrq qoldirmaydi.

Shulardan biri Xo'jakent qishlog'idagi «Chinor» guzariga tutash adirlikdagi g'aroyib chashmadir. Uning sir-sinoati shundaki, chashma har uch yilda bir marotaba ko'z ochadi. Uni mahalliy aholi «Oqbuloq buva» deyishadi. «To'qsonbuloq» deb nom qo'yib olganlar ham bor. Negaki, u «uyg'ongach», roppa-rosa to'qson kun suv beradi. So'ng yana yer qa'rige izsiz singib ketadi. Bu yerlik o'yinqaroq bolakaylarning «Oqbuloq – qochqoq buloq», deya chug'urlab, uni ardoqlashlari shundan...

Darvoqe, «Oqbuloq buva»ning suvi niyoyatda xushta'm va u qadar sovuq emas. Yana uning tabiiy mayinligi ham borki, ichsangiz, ichingizga nur ingandek bo'ladi. Shunda beixtiyor sunving naqadar buyut ne'mat ekanini ich-ichingizdan his qilasiz. Buloq qaynab chiqayotgan qumloq havza ham juda musaffo, tiniq. Tikilsangiz, aksingiz ko'rindi.

– Biz ham ikki-uch bor atayin shu qishloqqa kelib, bu ajabtovur buloqning suvidan bahramand bo'lganmiz, – deydi poxtaxtilik Zamira aya Sodiqova. – Yanglishmasam, chashmaning oxirgi «tashrifi» 2013-yil bahor oylariga to'g'ri kelgandi.

Necha-necha yillarki, xo'jakentliklar buloq ko'z ochgan go'shani saranjom-sarishta tutadilar. Uch yilda bir nasib etadigan diydorini intiqib kutadilar...

Jamshid MATYOQUBOV

6-aprel 2015

HAJGACHA USTOZLARJM O'G'ITIJA AMAL QJAMAN.

— deydi Buxoro viloyati, G'ijiduvon tumanidagi 61-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi o'qituvchisi Mukarram HAZRATQULOVA.

Gohida o'qituvchining kasbiy sifatlari, bilim, malaka va ko'nikmasi haqida gap ketsa, boshlang'ich ta'lum o'qituvchisi Mukarram opa ko'z oldimga keladi. Ustoz faoliyatini boshlaganiga, mana salkam 20 yil bo'libdi. U ish boshlagan birinchi kunidanoq jazzi bolalarning maktabga ko'nishi, farzand tarbiyasida ota-ona va o'qituvchi hamkorligi ahamiyatini amalda



bajarishga harakat qildi. Yosh mutaxassis sinfida har bir bola uchun «Ota-ona va bola» kundalik daftarini tashkil etdi. Mazkur kundalik o'tgan yillarda davomida maktab va oila o'tasida bog'liqlikni ta'minlovchi vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Muallima har bir o'quvchisining uyida nima bilan mashg'ul bo'lgani haqida ma'lumotga ega, chunki ota-ona farzandi haqidagi fikrlarini sind rahbari bilan muntazam o'rtoqlashib keladi.

Ona tili faniga ixtisoslashgan 3-«A» sinfiga rahbarlik qilayotgan ustoz o'quvchilar o'tasida «Ona tilimda bitilgan sehrli satrlar» mavzusida bayon, diktant, matn tanlash tanlovlарини о'tказди. «Kimming xati chiroyli?» tanloving muntazam tashkillashtirilishi

o'quvchilar orasida husnixat egalarining ko'payishiga sabab bo'ldi. Zamonaviy o'qituvchi darslar va qo'shimcha mashg'ulotlarni kompyuterda, slaydlar vositasida olib boradi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishlari oshishiga omil bo'limoqda. Opa mashg'ulotlarni «Aqliy hujum», «Tarmoqlar», «Musobaqa darslari» hamda «Charxpalak» kabi interfaol usullardan foydalangan holda tashkillashtiradi.

— O'quvchilarim o'ta talabchan, bu esa zimmamdag'i mas'uliyatni oshiradi. O'quvchi shaxsiga hurmat, uning tili, diliiga yo'l topish, o'tiladigan har bir das va darsdan tashqari tadbirlar mazmundorligini mos ravishda ta'minlash yo'lida haligacha ko'p yillik tajribaga ega ustozlarim o'gitlariga amal qilaman, — deydi muallima.

Pedagog har chorak yakunida shogirdlarining bilim samaradorligi qiyosiy tahlillari monitoringini olib boradi. O'quvchilaridan Sevinch Karimova, Dilnura Muhsinova, Shahriyor Shamsiddinov, Maqsadov Alimova, Nurmuhammad Muhsinov hamda Hanifa Rahmatova, Rustam Qayumovlar bugungi kunda iqtidori va chiroyli xulqi bilan tengdoshlariga o'rnak bo'ladigan sind faollaridan.

Kelajak avlodni ma'naviy yetuk, sog'lom fikrlari va barkamol qilib tarbiyalashda yoshlardan mehr-muhabbati, bilim va kuchg'ayratini ayamaydigan jonkuyar ustozlar bor ekan, ertangi kunimiz bugungidan-da nurli bo'lishi, shubhasiz.

Nurbek NURALI o'g'li

- Namangan viloyating Yuchi tumanidagi 6-umumta'lim maktabida yoshlarning darsdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmuni o'tkazishlari uchun ayni kunda fan, sport va badiiy to'garaklar tashkil etilgan bo'lib, unga aksariyat o'g'il-qizlar jalb qilingan.



O'quvchilar qaysi yo'nalishda b o'lm a s i n , o'z l a r i n i g iqtidorlarini to'liq namoyon etishga harakat qilishyapti. Muallima Dilfuza Isoqova rahbarligidagi «Yosh notiq to'garagida olib borilayotgan ishlar

maqtovg'a loyiq. 9-«B» sinf o'quvchisi Behzod Biloliddinov ham mazkur to'garakning faol a'zolaridan biri.

Behzod Namangan davlat universiteti qoshidagi «Lirk lazhalar» va viloyat «Nodira» kutubxonasi tashkil etilgan «Muzaffar so'z» to'garaklarining ham a'zosidir. O'tgan yili «Eng yaxshi kitobxon o'quvchi», «Kitobsevarlar» kabi ko'rik-tanlovlarining viloyat bosqichida 1-o'rinni egalladi. Shuningdek, «Kamalak yulduzları - 2014» bo'larlar ijodiyoti festivalining respublika bosqichida faol ishtirot etdi.

Tanlovdan to'iqinlanib qaytgan Behzod faxrlanib shunday deydi:

— Biz yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar, qaratilayotgan e'tibor barchamizni behad quvontiradi. Zero, shu yurt farzandi ekanligimdan g'ururlanaman. Bor iste'dodimni yurtimning ravnaqi uchun sarflayman.

*Shu o'lkada topgayman kamol,
Madhin kuylab chamanistonning.
Parvoz berdi menga Istiqlol,
Farzandiman O'zbekistonning!*

Hozirda o'zbek tili fani bo'yicha fan olimpiadasining viloyat bosiqchiga tayyorgarlik ko'rayotgan yosh ijodkor ingliz tilidan qo'shimcha mashg'ulotlarga qatnashishni kanda qilmaydi. Kelgusida xalqaro jurnalist bo'lib, mamlakatimiz hayotini xorijiy tilda sharhlamoqchi.

Ezgu maqsadlar yo'lida izlanayotgan iste'dod egasiga yuksak parvoz tilaymiz.

O'z muxbirimiz

7-aprel - Butunjahon salomatlik kuni

TISHLARINGIZNI YOSHLIK DAN ASRANG!

Jilmayganda kishi chehrasiga husn bag'ishlovchi bir tekis, oppoq durdek tishlarni ko'rsak, ko'zimiz quvnab ketadi. Tishlarimiz doimo sog'lom va ko'rkam bo'lishi uchun nimalarga e'tibor berish kerak?

Bugungi salomatlik haqidagi suhbatimiz ayan shu mavzuga bag'ishlangan bo'lib, poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 4-tish shifoxonasi mutaxassis, oly toifali stomatolog-terapeut Mafrat opa Sodiqova bu borada quyidagi fikr-mulohazalarni bildirdi.

Tishlar insonga faqat ko'rk beribgina qolmay, balki organizmda ovqat hazm bo'lishi uchun muhim vazifani bajaradi. Jumladan, yegulikni tishlab uzib olish, og'izda uzoq muddat chaynash davomida ovqat so'laklar yordamida maydalananidi. Bu esa luqmani oshqozonda yetarli darajada parchalanib, yengil hazm bo'lishida katta o'rinn tutadi.

Go'daklik chog'ida chiqqan sut tishlari tushib, 6-7 yoshdan boshlab farzandlarimizda birin-ketin yangi tishlar chiga boshlaydi. 12-13 yoshga kelib, sut tishlari o'rnini mustahkam, hayotimiz davomida xizmat qiladigan haqiqiy tishlar egallaydi. Shunday ekan, ularni yoshlikdan asrab'avaylashga katta ahamiyat berish darkor. Ba'zida

ayrim bolalar tishlarda yang'oq, danak kabi qattiq narsalarni chaqib, salqin ichimliklarning qopqog'ini tishlari bilan ochishga urinadilar. Bu tishlari bilan eng yaqin ko'mak-doshlar hisoblan-mish tish-larni shi-kast lab qo'yishlarini bilmaydilar.

Tishlarni arash, ularni sog'lom tutish qoidalariiga qat'iy amal qilish lozim. Kuniga ikki mahal: ertalab nonushtadan

keyin, kechqurun esa uxlashdan oldin tishlarni pasta yoki tozalash kukuni bilan yaxshilab yuvish maqsadga muvofiqdir. Oilaning har bir a'zosi o'zining shaxsiy tish chotkasiga ega bo'lib, har uch-to'rt oyda yangilab turish kerak.

Tishlarni to'g'ri parvarish qilishda shirinliklarni ham me'yorida yeyishni tavsija qilamiz. Ovgatlanguandan so'ng esa har safar oq'izni chayishni unutmang. Bundan tashqari, qattiq non, olma, sabzi kabi meva va sabzavotlarni ko'proq iste'mol qilinsa, milklar mustahkmlanadi.

Bir yilda ikki marotaba tish shifokori ko'rigidan o'tib turish shart. Kariyesga uchragan tishlarni esa o'z vaqtida davolatish kerak. Negaki, kasallangan tishlarni kishi organizmida boshqa kasallarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'isak, tishlaringizni yoshlik chog'ingizdan asray biling. Zero, sog'ligingiz o'z qo'lingizda.

Diloram HOTAMOVA yozib oldi

Lesson 30

Let's learn English!

The resourceful game

(Topqirlik o'yini)

Resolve the following rebus.

Find the names of these things in English and put together the head letters to make a new word.



An hour in the morning is worth two in the evening.

Better late than never.

 Proverbs
(Maqollar)

Never put off till tomorrow, what you can do today!

No pains, no gains.

Risolat ISMOILOVA

Word search

Find seven words from this box.

H	SH	W	O	R	K	S
I	M	A	P	L	O	T
T	O	L	D	N	D	A
R	U	L	E	R	H	R
U	H	V	S	D	Y	SH
B	O	O	K	CH	G	O

 Mehriniso MUXTOROVA,
Sirdaryo viloyati, Guliston tumanidagi
2-umumta'lum maktabining 8-«B» sinif o'quvchisi

 Opposite words
(Qarama-qarshi ma'noli so'zlar)

Open – close

Give – ...

Begin – ...

Agree – ...

Hot – ...

Old – ...

Long – ...

Weak – ...

Far – ...

Beginning – ...

Guest – ...

Answer – ...

 Take, disagree, finish,
near, strong, short, old,
cold, question, end,
host.

 Ibrohim FAYZIRAHMONOV,
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi
54-umumta'lum maktabi o'quvchisi

 Joke
(Latifa)

Cold and hot

A lesson of physics at school. The teacher asks pupils some questions.

Teacher: Who can tell me anything about cold?

Pupil 1: When it is cold, things are smaller.

Teacher: Ok. Thank you. What about hot?

Pupil 2: When it is hot, things are larger.

Teacher: All right. Now think of an example, please.


Pupil 3: In summer days are longer because it is hot, in winter they are usually shorter because it is cold.



Umida G'OFUR qizi

Find the words beginning with «P»

(«P» harfi bilan boshlanuvchi so'zlarni toping)


 Do you know about typewriter?
(Yozuv mashinkasi haqida bilasizmi?)

Do you know the history of typewriter? Typewriters were used before the computers invented. The first modern typewriter was developed by Christopher Sholes and two of his friends, they worked on a newspaper in Milwaukee in the 1860.

Sholes put each letter on the end of metal bar. A key was pushed down and the end of the bar hit the paper. The typewriter keys were put in alphabetical order, but alphabetical order caused a problem. Fast typing made some of the letter bars get caught on one another. The bars were too close together.

Sholes solved the problem. He found out the most-used letters in English. Then he put these letters far apart on the typewriter keyboard. The letter bars did not hit each other easily. The first six letters on the top of the keyboard are Querty.



New words:

Typewriter – yozuv mashinkasi

Develop – rivojlanmoq

Solve – hal qilmoq

Keyboard – klaviatura

Exercises

A. What's missing? Find the missing adjectives in the text.

- The first _____ typewriter.
- Sholes put _____ letter
- Were put in _____ order.
- Were too close _____.
- He put _____ letters far apart.
- The first _____ letters on the top line.

B. Circle the answer.

- Sholes worked for a) the government b) a typewriter company c) a newspaper.
- Letters were put on the end of metal a) bars b) keys c) alphabets.
- a) The metal b) Fast typing c) The letters caused the bars to get caught on one another.
- Sholes needed to know a) Querty b) the most-used letters c) Samuel to solve the problem.

It is interesting...

(Bu qiziq...)

Dear pupils do you know the smallest country in the world?
The smallest country in the world is Vatican, its territory is equal to 44 hectare.

Dinora SHAKIROVA tayyorladi

Bolalikning
beg'ubor olamida sayr
etib yurgan ijodkor
o'quvchilarimizning
dilnomalarini o'qib, goh
hayratga, goho tubsiz xayol
ummoniga g'arq bo'lamiz. Ko'z
oldimizda Lutfiy hazratlarini
hang-u mang qoldirgan
Alisher Navoiyning
bolatigi gavda-
lanadi.

Borliqning betakror jilosi

Yoshligida to'rt ming Hadisni yod bilgan Imom Buxoriy yoxud o'n ikki yoshida mamlakatni
boshqarishga bel bog'lab, bolaligi mashaqqtalar ichida kechgan shoh va shoir Bobur Mirzo hayotidan
xabar beruvchi «Boburnoma»ni eslaysiz. Biz o'zimizning kimlar avlodidan ekanligimizni anglagan
holda xalqning «Olmaning ostiga olma tushadi», degan maqoliga amal qilib, ishonch bilan yosh
ijodkorlarimizga bilim olish qamrovini yanada kengroq olishga harakat qilavering, degimiz keladi.

Buni birgina xorazmlik bir guruh ijodkor o'quvchilar yuborgan ijod namunalarini o'qiganda, yanada
chuqur his etdi. Ularning she'rlerida borliqning betakror jilosi qalbimizga zavq bag'ishladi.

Maktublar qalaminingzni charxlaydi. Shunday ekan, har bir kuningizni ibratlari onlarini dilda pishitib
qog'ozga tushirishni kanda qilmang!

**Quyida Xorazm viloyati, Urganch shahridagi 5-umumta'l'm
maktabining 4-«D» sinf o'quvchilari ijodidan namunalar o'qiysiz:**

YOMG'IR

Kechalari shivir-shivirlab,
Sevalaydi hovlida yomg'ir.
Go'yo menga pichir-pichirlab,
Nimalar der, bilmasman axir.

Yomg'ir, sendan qo'rmasman aslo,
Soyabonim qo'riqchi menga.
Ammo qolqim kelmaydi tanho,
Do'st bo'lishdan qo'rqaman senga.

O'g'iloy IBODULLAYEVA



GULLAR BAHSI

Atirgul, Lola, Rayhon,
Juda ahil dugona.
Bog'imga chiroy berish,
Niyatlari yagona.

Atirgul der: - Chiroyim,
Ko'rsatayin olamga.
Rayhon deydi: - Iforam,
Ulashay har odamga.

Shunda uyalib lola,
Yanoqlari qizardi.
Lekin uning chiroyi,
Hammasidek o'zardi.

Munisa QADAMBOYEVA



MENING QUYOSH BOBOM

Tongda tarab sochini,
Go'yo osmonda olov.
Yashnatar tabiatni,
Xuddi bezatgan birov.

Kimligini bilaman,
Bu mening Quyosh bobom.
Nur sochadi borliqa,
Yashnaydi butun olam.

Dilnora SOBIROVA



MAKTABIMNING QUCHOG'I

O'qituvchi, uchuvchi ham,
Shifokor, to'quvchi ham.
Maktab ko'rgan, deydilar,
Mening mehribon onam.

Men ham mакtabga keldim,
Issiq taftini tuydim.
Do'st bo'ldim kitob bilan,
Misoli oftob bilan.

Maktab juda qadrli,
Ustozlari mehrli.
Maktab bilim o'chog'i,
Juda kengdir quchog'i.

Abduvali

MUHAMMADZARIPOV

IBRAT

Mening bog'im ichida,
Yashaydi chumolilar.
Ular o'zin ishida,
Timmasdan yelib yuray.



Boshoq ko'targan biri,
Yana biri don tashir.
Ularday mehnatsevar,
Bo'lishim kerak axir.

Zuhraxon ATAJANOVA

SIZNI YAXSHI KO'RAMAN

Siz aytgan ertaklardan,
Ulkhan ma'no izladim.
Hayotdaggi o'rnimni,
Men ibratdan ko'zladim.

Ertaklarning tubida,
Sizning mehringiz yotar.
Mehringiz nuri esa,
Xuddi quyoshga o'xshar.

Ranjitmayman hech qachon,
Sizni yaxshi ko'ruman.
Suyuk nabira bo'lib,
Yoningizda yuraman.

Akrom KOMILJONOV

AXTAMQULI

BAHOR KELGANDA...



Asta-sekin maysalar ko'targanda bosh,
Jimirlab jonlanadi ko'kdagi quyosh.
Dehqon uchun dalalar bo'ladi yo'ldosh,
Go'zal bahor kelganda, bahor kelganda.

Ariqlarda suvlari toshqin bo'ladi,
Kuylagan qo'shiqlar jo'shqin bo'ladi.
Gullar iforidan ko'nglim to'ladi,
Go'zal bahor kelganda, bahor kelganda.

Bahorda gullarning atri ham bo'lak,
Adirlar kiyadi yam-yashil ko'yak.
Momolar bildirat pok egzu tilak,
Go'zal bahor kelganda, bahor kelganda.

Bahordir yasharish, bahor — uyg'onish,
Yurakka zavq berar har bir yangi ish.
Boshlanar kundan kun, o'zgacha xoish,
Go'zal bahor kelganda, bahor kelganda.

Ruxsora ABDUXOLIQOVA,
Surxonxaryo viloyati,
Denov agrosanoat kasb-hunar
kolleji o'quvchisi



ELGA XIZMAT QILAMAN

Otam deydi: - Polvonim,
Sodiq qolqin Vatanga.
Yurtga xizmat qilishni,
Dilingdan qilma kanda.

Onajoning oq sutin,
Oqlagin, - deb quvonar.
Meni bag'riga bosib,
Qo'lin duoga ochar.

Katta bo'lsam, albatta,
Elga xizmat qilaman.
Yurtimiz tinchligini,
Baxt va sharaf bilaman.

Dilobar G'ULOMOVA,
Shayxontohur tumanidagi
324-umumta'l'm mакtabining
4-sinf o'quvchisi

YULDUZLARNI QUCHGIM KELADI

Samolarda uchgim keladi,
Yulduzlarni quchgim keladi.
So'ng ularning poyiga birdan,
Atirgullar sochgim keladi.

Atir bo'yi bunchalar shirin,
Yulduzlarga ochadi sirlin.
Kamalakning tovlanishida,
Qay sinoat ekan yashirin.

Yomg'ir bo'lib yog'gim keladi,
Bulutlarning yonida yurib.
Yulduzlarni bag'rimga bosib,
Ketayapman men xayol surib.

Mohiniso BOBOQULOVA,
Samarqand viloyati,
Pastdarg'om tumanidagi
18-umumta'l'm mакtabining
8-sinf o'quvchisi



MUHAMMADAMIN 5 YOSHDA

Muhammadamin Abdunaimov Andijon shahridagi 43-MTM tarbiyalanuvchisi. U muassasaneng eng odobli bolajonlardidan bira. Maskandagi tadbirlar uning ishtirokisiz o'tmaydi. Sportni jondan ortiq yaxshi ko'radigan bolakay ta'limgardan tashkil topgan karate to'g'aragining faol a'zosi. Hali olti yoshga-da to'lib ulgurmagan tarbiyalanuvchi qator yutuqlarni qo'iga kiritdi. Jaiji sportchi «Yoshlar va o'smirlar o'rtaida klub birinchiligi»da faxrli 2-o'rinni egalladi.

Muhammadamin joriy yilda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan musobaqada O'zbekiston Karate milliy federatsiyasi VI-VII darajali diplomlarini qo'iga kiritdi. U bugungi kunda federatsiya a'zosi.

- Muhammadamin o'ta tirishqoq. Har bir mashg'ulotga jiddiy yondashadi. O'zini xuddi katta sportchilardek tutishga urinadi. Shogirdimning usullar namoyishidagi harakatlaridan zavqlanaman, - deydi murabbiy Zarif Yo'idoshev.

Yurtimiz maktabgacha ta'limga muassasalarida Muhammadamin kabi qalbi sportga oshno bolajonlarimiz borligidan dilimiz zavqqa to'ldi.

Maftuna TOHIRJON qizi

Hazorboq'lik q'oliblar orni

Surxondaryo viloyatining Denov tumanida Hazorboq' nomli xushhavo maskan bor. Ushbu xo'jalik nafaqat ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bilan, balki san'at, madaniyat, adabiyot sohalarida qator yutuqlari bilan ham ajralib turadi. Hozirgi kunda hazorboq'lik sportchi yoshlar respublikamiz, shuningdek, jahon miqyosida o'tkazilayotgan musobaqalarda ham yuqori o'rnlarni egallab kelmoqda.

- 2002-yilda karate klubini ochganimda, to'g'risi, bu kabi natijalarga erishishimiz haqida o'ylab ko'rmagan ekanman, - deya eslaydi qora belbosq', 4-Dan sohibi, murabbiy Abdurasul

Xo'jamiyorov. - Karate orqali oddiyigina qishloq bolasining jahon arenalariga chiqishi faqatgina mustaqillik tufayligina amalga oshdi.

Respublika karate musobaqalarida ishtirok etgan murabbiyning shogirdlari birinchibor 2008-yilda Italiya shahrida o'tgan o'smirlar o'tasidagi jahon championatidan Vatanimizga bitta oltin va bitta kumush medal olib kelishdi. 2010-yilda Barino Mirzayeva Guanchjouda o'tgan Osiyo o'yinlarida bronza medalini qo'iga kiritib, jamoaviy hisobda O'zbekistonning kuchli o'nlikka kiritilishiga hissa qo'shdil. Sportchi o'tgan yili Incheonda o'tkazilgan Osiyo o'yinlari musobaqalarida kumush medalini qo'iga kiritib, jahon karate tasnidida mamlakatimiz mavqeini yanada baland ko'tardi.

Hazorboq'da, endilikda, har tomonlama Barnodan kam bo'lmagan, uning haqiqiy izdoshlari, yosh sportchi o'g'il-qizlar yetishib chiqmoqda.

Suhrob Kamolov 4 yildan beri karate bilan shug'ullanib, bir necha bor viloyat miyqosidagi kubok va championatlarda yuqori pog'onalarni egalladi. O'tgan davr mobaynida Qarshi shahrida bo'lib o'tgan Qashqadaryo viloyat ochiq birinchiligidida 2-o'rinni, Toshkent ochiq birinchiligidida oltin medalni qo'iga kiritdi.

Maskan o'quvchilaridan Mashhura Xo'shboqova ham karate bilan shug'ullanish uchun aynan Hazorboq' klubini tanladi. Mashg'uotlarga muntazam qatnashib boradigan sportchi tuman va viloyat championatlarida faxrli 1-, 2-o'rnlardan past pog'onalarga tushmagan. Mashhura joriy yilda poytaxtda o'tkazilgan O'zbekiston championatida oltin medalni qo'iga kiritdi.

Hazorboq'da yoshlarning ezgu orzular bilan yashash an'analari shakllantirildi. Bu borada biz ularga hamisha omad yor bo'lishini tilaymiz.

*Nozima QUDRAT qizi,
Surxondaryo viloyati*

POLVONLARGA HAVAS QILIB...

Yoshligidan Rishod Sobirov, Abdulla Tangriev kabi yurtimizning mashhur polvonlariga havas qilgan qiziltepalki Hasan Botirov tumandagi 7-Bolalar va o'smirlar sport maktabiga a'zo bo'ldi.

Mana sakkiz yildirki, sportchi-o'g'uvchi Maqsud Sultanov murabbiyligida kurash sirlarini o'rganib kelmoqda. U 2013-yili mart oyida dzyudo bo'yicha Respublika championatida 1-o'rinni, so'ng o'sha yilning may oyida Samarqandning Nurobod shahrida bo'lib o'tgan mamlakat championatida ham birinchibor o'rinni egalladi.

O'tgan yili Xorazm viloyatida dzyudo bo'yicha o'tkazilgan xalqaro turnirida hamda Navoiyda bo'lib o'tgan viloyat birinchiligidagi 1-o'rning munosib topildi. Andijon shahrida kurash bo'yicha O'zbekiston championatida esa 2-o'rinni qo'iga kiritdi.

2015-yil 24-25-mart kunlari «Umid nihollari - 2015» viloyat bosqichida 2-o'rinni sohibi bo'ldi.

- Kelajakda ustozim Maqsud aka singari sport murabbiyi bo'limoqchiman, - deydi Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi 21-umumta'lim maktabining 9-sinfida o'qiyotgan sportchi. - Har safar musobaqada gilamga chiqqanlarda, ota-onam qatori ustozimning oq fotihasi menga kuch bag'ishlaydi. Yaqinlarimning menga bo'lgan ishonchi g'alaba sari yetaklaydi.

*Kurshid YUNUSOV,
Navoiy viloyati*



ZULFIYANING IZDOSHI

U Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumanidagi sport-pedagogika kollejining III bosqich o'quvchisi, 2014-yildan xalqaro toifadagi sport ustasi hamdir.

Go'zal bolalikdagi o'zbek milliy kurashi bilan astoyidl shug'ullandi, bugunga qadar juda ko'p faxrlı yutuqlarni qo'iga kiritdi. Sportchi o'tgan yillar mobaynida Osiyo championati va xotira turnirlarida yetakchi o'rnlarni egalladi. U 2014-yil «Yilning eng yaxshi ayol kurashchisi» degan nomiga sazovor bo'lgan. 2015-yil yanvar oyida o'tkazilgan yana bir xalqaro turnirda oltin medalni qo'iga kiritdi.

Bu yil 8-mart - Xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida e'lon qilingan Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibalari orasida Go'zal Rahmonovaning ham borligi quvonlarli hol.

- Bu mukofot yuragiimga quvonch, faxr-u iftixor tuyg'ulari bilan birgalikda juda katta mas'uliyat ham yukladi. Endi men davlatimiz e'tirof etgan baxtil qizlar qatorida mukofotga munosib inson bo'lib yetishishim kerak va bunga astoyidl harakat qilaman, - deydi Go'zal hayajonini yashirolmay.

Biz ham uning kelgusi ishlardorida ulkan zafarlar tilab qolamiz...

*Yulduzoy O'RMONOVA,
Zulfiya nomidagi
Davlat mukofoti sohibasi*





Aziz o'quvchilar! Kamtarin inson, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Tohir Mullaboyevni televide niye orqali namoyish qilingan «Quvnoq startlar», «Yashil chiroq», «Mo'jizalar olamiga sayohat» hamda «Balaligim – poshsholigim» dasturlari orqali yaxshi tanisiz. 50 dan ortiq turkum ko'rsatuvlar muallifi, endilikda, «Bolajon» telekanalida «Xudayberdi bobo – mehmunda» dasturi orqali yurtimiz bolalariga rivoyatlar, otalar o'gitiga oid ibratlari ko'rsatuvlar namoyish etmoqda.

Bugun 75 yoshini nishonlayotgan ijodkorga sog'lilik-omonlik tilagan holda uning topishmoqlaridan ayrimlarini e'tiboringizga havola etamiz!

TOPISHMOQLAR

Toza, mayin, to'r burchak, Turar joyidir cho'ntak, Kerak bo'lsa, qo'lg'a ol, Uning nomi ...

Siyoh una kerakmas, Yozadi, qalam emas. O'zi oq, yozar yumshoq, Topig, bu sizga jumboq!

$$1+4=$$

Yog'ochdan silliq tani, Ilma-teshik badani. Bag'ridan o'tsa havo, Taralar mayin navo.

Xatolarni tuzatib, Qog'oz yuzin silaydi. Shamdek singib ketsa ham, Buyrug'ingga chidaydi.



IZOHGA HOJAT YO'

Xalqimiz azaldan kulgi, hazil-mutoyibani sevgan, bu borada katta merosga egaligi bilan ham ajralib turadi.

Satira va humor, ayniqsa, folklorda o'z ahamiyati va o'mini munosib egallab, sog'lim kulgi odamlar orasida fazilat sifatida qadrlanib kelingan.

Yaqinda Xalqaro hazil-mutoyiba kuni munosabati bilan poytaxtimizdagi Fotosuratlar uyida «Birga kulishaylik» nomli karikaturalar ko'rgazmasi taqdimiti bo'lib o'tdi.

Ko'rgazmada Shavkat Muzaffar, Mahmud Eshonqulov, Farrux Teshayev, Jahongir Mirzo kabi 14 nafr taniqli karikaturachi-rassomlar muallifligida 200 dan ortiq eksponatlar namoyish etildi. Ular orasida bolalar uchun chizilgan hazil rasmlar, ayniqsa, Husan Sodiqovning ertaklarga ishlagan karikaturalari e'tiborlidir.



«QORAQALPOG'ISTON» KROSSUORDI

1. Qanotli do'stimiz

Q	u	Sh
O	n	a
R	u	b
A	n	o
Q	ö	l
A	r	h
L	o	a
P	a	x
O	z	o
G	o	l
I	n	j
S	u	v
T	a	n
O	l	t
N	u	k

2. Ulug' zot

3. Musiqa asbobi

4. Meva turi

5. Inson a'zolaridan biri

6. Suv yo'li

7. Tog'da o'sadigan gul

8. Xalqimiz boyligi

9. Dengiz nomi

10. Marraga biringchi yetib kelgan inson

11. Qaysarning ma'nodoshi

12. Hayot manbai

13. Qoraqalpoq hajiyi filmi

14. Qimmatbaho metalli

15. Qoraqalpoq'iston-dagi shahar

Ozoda SHOMURATOVA, Amudaryo tumani 41-umumta 'lim maktabi o'quvchisi

Qoraqalpoq'iston Respublikasi, Amudaryo tumani



Alisher FAYZULLAYEV

QIZIL LAVLAGILI SALAT

Kerakli masalliqlar: 200 gramm kartoshka, 100 gramm qizil sabzi, 150 gramm qizil lavlagi, 200 gramm kolbasa, 100 gramm oxlo'ri qoqisi, 150 gramm mayonez, yong'oq va ko'katlar.

Tayyorlanishi: kartoshka, sabzi, qizil lavlagi tuzli suvida qanatiladi. Sovutilgan sabzavotlar po'stidan ajratilib, to'r burchak shaklida to'g'raladi. Unga to'g'ralgan kolbasa ham qo'shiladi. Oxlo'ri qoqisi bug'da yumshatilib, danagi olib tashlanadi. U yirik bo'laklarga bo'linadi.

Likopcha tagiga awval kartoshka, sabzi, kolbasa, lavlagi, oxlo'ri ketma-ketlikda orasiga mayonez surtilib taxlanadi. Salatni yong'oq va mayda to'g'ralgan ko'katlar bilan bezatiladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

8



Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Muassislari:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengash, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:

Omonulla YUNUSOV, Abdug'ani XOLBEKOV, Bahodir G'ANIYEV, Svetlana INOMOVA, Murtagh SULTONOV, Zoir ISAJONOV, Vahobjon RAJAPOV, Zikrilla TESHABOYEV, Feruza JALILOVA, Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

Navbatchi

muharrir

Axtamqul

KARIMOV

Rassom

Feruzbek

KAMOL o'g'li

Manzilimiz:

Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100129. Obuna indeksi: 198. e-mail: info@tongyulduzi.uz www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08

Tel./faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston»

NMIUda chop etildi. Tahririytga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi.

Shakli A-3, 2 bosma taboq. ISSN 2010-6092 Adadi – 47815 Buyurtma – S 2579

AMOLOT
«HAM KULDIRADI, ham KUYDIRADI»

Kuni kecha yurtimizning muhtasham «Yoshlar ijod saroyi»da «Kamolot»da mehmonda loyihasi doirasida tashkil etilayotgan navbatdagi «Qiziqchilik san'ati: ham kuldiradi, ham kuydiradi» nomli on-layn muloqot bo'lib o'tdi.

Tadbirda el suygan artist Roza Karimova, hajvchi shoir Tursunboy Adashboyev, so'z ustalaridan Abdulla Akbarov, Avaz Oxun hamda «Comedy.uz» jamoasi mehmon bo'lishdi.

Muloqot davomida o'zbek qiziqchilik san'atining paydo bo'lishi tarixi, ushbu san'at turining bugungi kundagi holati va istiqbollari haqida savol-javoblar bo'lib o'tdi. Mehmonlar www.kamolot.uz veb-saytiga hududlardan kelgan 400 dan ortiq savollarga javob berishdi. Tadbir ishtirokchilarining fikr-mulohazalarini sayting Forum bo'limiga to'g'ridan to'g'ri kiritilib, yoshlar tomonidan internet orqali kuzatib borildi.

Ozoda TURSUNBOYEEVA

Gazetamizning 13-sonida chop etilgan «KITOBALAR MADHI» KRIPTOGRAMMASINING JAVOBLARI:

Kalit so'zlar: 1. Ertak. 2. Darslik. 3. Kutubxonasi. 4. To'plam. 5. Aruz. 6. «Guliston». 7. Jadval.

Ibratli so'z:
Kitob ekan xazina,
Unga bo'lgil parvona.
Dil lazzati jamiljam,
Kitobdaridir mujassam.

6-aprel 2015